



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Umarova Go‘zal G‘ayratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
professor v.b., DSc-iqtisodiyot fanlari doktori
E-mail id: umarovaguzal79@mail.ru

Khudoyorova Mekhrangiz Muradovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti
E-mail id: mekrangizkhudayarovo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiy sharoitda elektron tijoratning rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Elektron tijoratni rivojlantirish usullari va mamlakatlarning elektron tijoratdagi aloqalari va raqobatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar mavjud. Bundan tashqari elektron tijoratning mamlakatimizdagi o‘rnini va ahamiyati, rivojlanish bosqichlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, internet auksion, elektron hujjat, elektron xabar, marketpleys, tovar, raqamli qiymat.

Kirish: Elektron tijorat (e-tijorat, ingl. “e-commerce”) — internet orqali savdo-sotiq amaliyotlarini tashkil etish. Elektron tijoratga jahon miqiyosida hozirgi eng katta internet auksioni va do‘konni eBay misol bo‘ladi. O‘zbekiston kesimida esa elektron tijorat maydoni Vibo Marketplace misol bo‘ladi.

Elektron tijoratning asosiy printsiplari:

- elektron tijorat sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish erkinligi;
- elektron tijoratda shartnomalar tuzishning ixtiyoriyligi;
- elektron tijoratda ishtirok etish shart-sharoitlarining tengligi;
- elektron tijorat sub’ektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tegishli darajadagi sifatini ta’minlash;
- elektron tijoratda jarayonlarning ochiqligi va shaffofligi;
- elektron tijoratda axborot xavfsizligini ta’minlash.

Elektron tijoratdagi shartnoma faqat axborot tizimlaridan foydalanilgan holda tuzilganligiga asoslanib haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

Elektron tijorat ishtirokchisi quyidagi huquqlarga ega:

- elektron tijorat maqsadida ishlab turgan axborot resurslarida ofertani joylashtirish (taklif etish);
- elektron tijoratdagi shartnomalarni tuzish yo‘li bilan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish yoki olish;
- elektron hujjatlar va elektron xabarlarni axborot vositachilariga saqlash uchun topshirish.



Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Elektron tijorat atamasining o‘zi deyarli 1950—1960-yillarda kompyuter paydo bo‘lganidan keyin darhol paydo bo‘ldi. Dastlabki dasturlardan biri bu transport chiptalariga buyurtma berish, shuningdek reyslarni tayyorlash uchun turli xizmatlar o‘rtasida ma’lumot almashishdan iborat bo‘lgan. U 1961-yil Massachusetts texnologiyalar institutidan Leonard Kleinrok ma’lumotlarni uzatish uchun paketlarni kommutatsiya qilish nazariyasini ishlab chiqdi.

Dunyoning deyarli barcha davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyati an’anaviy savdo aloqalaridan uzoqqa chiqib ketishga ulgurdi. Elektron tijoratning rivojlanishi va internetda savdo platformalarining paydo bo‘lishi tufayli yuzma-yuz uchrashuvlarga bo‘lgan ehtiyoj yo‘qolib bormoqda. Har qanday mahsulotni sotib olish uchun hatto oddiy iste’molchi ham uydan chiqmay turib tovar va xizmatlarni masofadan xarid qilish imkonini yaratadi. Bu nafaqat o‘z shahringiz yoki mamlakatingizda xarid qilish, balki boshqa mamlakatlardan tovarlarga buyurtma berish va yetkazib berish imkoniyatini mavjudligini anglatadi.

Elektron tijorat hamda marketpleyslardan foydalanish tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi, butun dunyo bo‘ylab yetkazib beruvchilar va xaridorlarni bog‘laydigan savdo kanali bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bugungi kunda biznes uchun elektron tijoratning qiymatini baholab bo‘lmaydi: u kompaniyalarning iste’molchilar ehtiyojlarini tushunishini yaxshilaydi, mahsulot va xizmatlarni jahon bozoriga taqdim etadi. Hozirgi vaqtda jahon iste’mol tovarlari savdosining qariyb 12 foizi xalqaro elektron tijorat orqali amalga oshirilib kelinmoqda va bu ko‘rsatkich doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Yevropa Komissiyasi o‘z tadqiqotida ta’kidlaganidek, onlayn platformalar Yevropa Ittifoqi va butun dunyoning kelajakdagи iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi “raqamli qiymat”ni yaratishda yetakchi rol o‘ynaydi.

Elektron tijoratning xalqaro statistik ma’lumotlari:

- ❖ Dunyo bo‘ylab 26 milliondan ortiq elektron tijorat saytlari mavjud bo‘lib, ularning soni kundan-kunga ortib bormoqda;
- ❖ Birgina AQShda 9,5 milliondan ortiq elektron tijorat saytlari mavjud bo‘lib, ular kundan-kunga o‘sib kelmoqda.
- ❖ 2021 yilda butun dunyo bo‘ylab elektron tijorat chakana savdosini taxminan 4,9 trillion dollarni tashkil etdi.
- ❖ Mobil elektron tijorat savdosini 2021 yilda 3,56 trillion dollarga yetdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 15,2 foizga ko‘p.



- ❖ 2021-yilda 2,14 milliard raqamli xaridorlar bor edi. Bu dunyodagi 7,74 milliard kishining 27,6 foizini tashkil qiladi.

Dunyodagi 10 ta eng yirik elektron tijorat bozorlari 2021 yil yakuniga:

- Xitoy: 2,779 milliard dollar
- Qo'shma Shtatlar: 843 milliard dollar
- Buyuk Britaniya: 169 milliard dollar
- Yaponiya: 144 milliard dollar
- Janubiy Koreya: 121 milliard dollar
- Germaniya: 102 milliard dollar
- Frantsiya: 80 milliard dollar
- Hindiston: 68 milliard dollar
- Kanada: 44 milliard dollar
- Ispaniya: 37 milliard dollar

Elektron tijorat korxonalari uchun o'rtacha konversiya darajasi 1,53% ni tashkil etdi. Marketpleyslardagi savatchalarining 69,57 % tashlab ketilgan.

Natijalar

Elektron tijoratning O'zbekistondagi holati tahlili

AQSh Savdo vazirligi Xalqaro savdo departamentining yaqinda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasidagi elektron tijorat bo'yicha tahliliy hisobotida quyidagilar qayd etilgan:

Statistika xalqaro ma'lumotlar bazasi, O'zbekistonda elektron tijorat bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni taqdim etdi: 2020-yilda mamlakatning elektron tijorat yo'nalishi 481,3 million dollar daromad keltirdi va mamlakat umumiyligi raqamli daromadining 68 % ni tashkil etdi. Qolgan 32% ni raqamli ommaviy axborot vositalari, elektron xizmatlar va elektron sayohatlardan iborat. O'zbekistonda raqamli xarajatlar 2020-yilda aholi jon boshiga iste'mol xarajatlarining 1,2 % ni tashkil etdi, bu esa Osiyoda o'rtacha 3,1 % ni tashkil etmoqda. 2025 yilga kelib, elektron tijorat daromadlari yillik 6,3% ga o'sishi kutilmoqda. Odamlar asosan moda tovarlari (32%) va elektronika (31%)ni onlayn xarid qilgan, undan keyin oziq-ovqat va shaxsiy gigiyena mahsulotlari (14%), o'ynchoqlar, sevimli mashg'ulotlari va uy-ro'zg'or buyumlari (11,5%), mebel va texnologiya (11%).

O'zbekistonda elektron tijorat sanoati rivojlanishning dastlabki bosqichida. 2022-yil yanvar oyi holatiga ko'ra, internetdan foydalanuvchilar soni 27,2 million kishini tashkil etdi, 35,5 million kishilik mamlakatda 25,3 million mobil internet foydalanuvchisi va 3,2 million doimiy keng polosali internet foydalanuvchisi mavjud. Xalqaro ma'lumotlarni uzatish kanallarining o'tkazish



qobiliyati 1800 Gbit/s ni tashkil etdi va 2022 yil oxiriga kelib 3200 Gbit/s gacha oshirilishi kutilmoqda. Mamlakat telekommunikatsiya infratuzilmasiga sarmoya kiritmoqda, biroq Speedtest.net xalqaro Internet tezligini baholab boruvchi indeksga ko‘ra, ma’lumotlarni yuklab olish tezligi 13,78 Mbit/s va yuklash tezligi 6,83 Mbit/s bo‘lgan mobil internet bo‘yicha 138 mamlakat ichida faqat 118-o‘rinni egalladi. U 40,16 Mbit/s yuklab olish va 37,92 Mbit/s yuklash tezligi bilan qattiq keng polosali internet bo‘yicha 174 mamlakat ichida 86-o‘rinni egalladi. Elektron tijoratni rivojlantirish uchun hukumat onlayn daromaddan faqat 2% soliq undirish tartibini joriy etdi, an’anaviy biznes uchun esa 4% etib belgilangan. O‘zbekiston qonunchiligi dori vositalari va tibbiy asbob-uskunalarni onlayn sotishga ruxsat berdi, shuningdek, tovar va xizmatlar uchun to‘loving qonuniy isboti sifatida elektron cheklar va schyot-fakturalarga ruxsat berdi. O‘zbekiston Markaziy banki 2019-yilda Visa bilan raqamli to‘lovlar uchun infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumini imzoladi va ko‘plab banklar onlayn to‘lovlarini qayta ishlashni osonlashtirish uchun elektron tijorat veb-saytlariga to‘lov dasturlari va xizmatlarini taklif qilmoqda. Elektron tijorat sohasida IT-mutaxassislar sonini ko‘paytirish maqsadida, 2018-yilda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida elektron tijorat yo‘nalishi ochildi.

Xulosa

Elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash uchun nafaqat internet tarmog‘iga ulanish va tashkilotlarning zamonaviy kompyuterlar bilan texnik jihozlanishi, balki veb-sayt va elektron pochta manzilining mayjudligi ham katta ahamiyatga ega. Tashkilotning shaxsiy veb-sayti elektron iqtisodiy munosabatlар ishtiroychilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa imkoniyatlarini sezilarli kengaytiradi. Unda tashkilot to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar joylashtirib borilishi barobarida, tezkor buyurtmalar ham qabul qilish mumkin.

Tahlillarga ko‘ra, hozir yurtimiz miqyosidagi onlayn xaridlarning aksariyati mahalliy do‘konlarda amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasidagi onlayn-xaridorlar uchun asosiy mamlakat esa Xitoy Xalq Respublikasi hisoblanadi. Demak, aholi va tashkilotlarning elektron tijorat muhitiga jalb etilishi, xorij bozoriga chiqish va chet ellik hamkorlar bilan ishslash ko‘rsatkichlari hozircha yetarli darajada emas.

Vaholanki, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti (YAIM)da axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda elektron tijorat daromadlari ulushini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bunda onlayn do‘konlar soni ortib borayotgani va xaridorlar ham bunga moslashayotgani quvonarli albatta.



Ammo tizimni qiyosiy jihatdan yanada kengroq o'rganish talab etiladi. Shu orqali qator takliflar ham o'rtaga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдухалиева Л.Т. Интернет маркетинг. - Т.: Иқтисодиёт, 2019. 265 6.
2. Gary Armstrong, Philip Kotler, Michael Harker, Ross Bernnan. Marketing an introduction. England, 2016, Paperback: 720 pages, Pearson.
3. Набижонов, О., Шавкатова, Ш. ., & Сатторова , С. . (2022). КОРХОНАЛАРДА ИШЛАБ ЧИКАРИШ ХАРАЖАТЛАРИНИ МИНИМАЛЛАШТИРИШ СТРАТЕГИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Евразийский журнал права, финансовых и прикладных наук, 2(7), 27–29. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/1918>
4. Набижонов , О. ., Хужамкулов , З. ., & Юлдашева, С. . (2022). РЕЗУЛЬТАТИВНОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ НА ТРАНСПОРТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. Евразийский журнал права, финансовых и прикладных наук, 2(5), 239–246. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/3100>
5. Атаджанова , З., Муродов , А., & Набижонов , О. Г. (2022). ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИ САМАРАДОРЛИК . Евразийский журнал права, финансовых и прикладных наук, 2(4), 74–82. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/1356>
6. Otabek Ganiyevich Nabijonov, & Sh. A. Kholbutaeva (2022). THE ROLE OF CONSULTING IN THE MODERN MARKET ECONOMY. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (2), 5-8.
7. Ugli, A. S. O., Ganiyevich, N. O., Ugli, Y. S. Z., & Ugli, K. R. A. (2021). About how cheap (actually very expensive) loans may not enrich the poor. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2191-2193.
8. Shavkatova , S. ., & Nabijonov , O. . (2022). INNOVATSIYA FAOLIYATINING AHAMIYATI. Евразийский журнал права, финансовых и прикладных наук, 2(11), 4–7. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/4088>
9. Отабек Ганиевич Набижонов, Зохиҷон Раббимқул Ўғли Хужамкулов, & Ф. Б. Шакирова (2022). ИННОВАЦИЯЛАР НЕГИЗИДА БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (4), 326-334.
10. Nabijonov Otabek Ganiyevich, & Shavkatova Shakhnoza Pulot Qizi. (2021). THE ROLE OF UNIVERSITIES IN BUILDING A REGIONAL INNOVATION SYSTEM. Eurasian Journal of Academic Research, 1(8), 102–106. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5709174>



- 11.Kholikova Rukhsora Sanjarovna, & Bakhtiyorov Akhmadbek Feruz-oglu. (2023). OUTCOME OF E-TRADE, CREATING BY ACCELERATING DIGITAL ECONOMY. E Conference Zone, 40–43. Retrieved from <http://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1876>
- 12.Akhmadbek Bakhtiyorov. (2023). ACCELERATING EXPANSION OF DIGITALIZED HIGHER EDUCATION SYSTEMS FOR CREATING BETTER LEARNING CONDITIONS WORLDWIDE. Open Access Repository, 4(3), 916–919. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/TVUS8>
- 13.Rasulova, N. N., Primova, A. A., & Khudayarova, M. M. (2020). Small business and private enterprise as a priority for the further development of Uzbekistan. European research, (6), 64.
- 14.Bakhtiyorov, A. (2023). ECONOMIC SIDE EFFECTS OF OPEN MARKET SYSTEM TO DEVELOPING COUNTRIES. Solution of social problems in management and economy, 2(8), 9-11.

